

ДК:37.013

MUHAMMADJON XOLBEKOV TANIQLI TARJIMA NAZARIYOTCHISI

*Mamadazizova Shaxnoza**Jizzakh state pedagogical institut called Abdulla Kadiri**The faculty of foreign languages and literature***Аннотация.**

В данной статье представлена информация о работе, проделанной в Узбекистане в области переводоведения, а также о творчестве и деятельности литературоведа Холбекова Мухаммаджона.

Key words: Literary critic, translator, theory of translation, history of translation, literary translation, translation studies, art history.

Ключевые слова: Литературовед, переводчик, теория перевода, история перевода, художественный перевод, переводоведение, искусствоведение.

Introduction. Tarjima nazariyasiga bag‘ishlangan ilk tadqiqotlar o‘tgan asrning 20-yillarida yuzaga kela boshlagan. Ularda hali tarjima nazariyasi fan sifatida e’tirof etilgan aniq fikrlar bildirilmagan edi. Tarjima nazariyasini fan sifatida ta’riflagan dastlabki ilmiy izlanishlar XX asrning 50-yillarida e’lon qilina boshladi. Jumladan, rus olimlari I.Kashkin va A.Reformatskiyning tarjima nazariyasi xususidagi maqolalaridan so‘ng bu sohada bahs-munozaralar jonlandi.

Professor A. Reformatskiy o‘z maqolasida “Tarjima amaliyoti barcha fanlar uchun xizmat qilsa-da, tarjima nazariyasi mustaqil fan bo‘lolmaydi. U tilshunoslikning bir bo‘limigina bo‘lishi mumkin”, degan fikr bilan chiqdi. Tez orada uning bu fikriga qarshi tilshunos A.Fedorov “Tarjima nazariyasi fan sifatida e’tirof qilinishi zarur. Faqat u strukturasi ko‘ra tilshunoslik yo‘nalishiga vobasta bo‘lmog‘i kerak”, degan g‘oyani ilgari suradi. Bu munozarada T. Savori, E. Kari, J. Ketford, J.Munen, R.Yakobson singari xorijlik tilshunoslar qatori professor G‘aybulla Salomov ham faol ishtirok etib, bahs jarayonida tarjimashunoslik ilmiga kirib keldi.[1]

Olimning rus tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjima qilishning ayrim nazariy muammolari yoritilgan ilk risolasida A.Chexov hikoyalari tarjimasida milliy o‘ziga xoslikning berilishi va frazeologizmlarning o‘girilishi tadqiq etilgan edi. Tarjima nazariyasining lingvistik tamoyillari xususidagi qarashlarini takomillashtirish jarayonida u keyinchalik rus tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjimalarda maqol va idiomalarning talqini mavzusida izlandi. Kuzatishlari natijasi o‘laroq, ustoz o‘zining “Maqol va idiomalar tarjimasini” nomli risolasini nashr ettirdi. Unda maqol va matallarning mazmuni hamda shaklining o‘ziga xosligi, ularni so‘zma-so‘z o‘girib bo‘lmasligi sabablari, paremiologiya, frazeologiya va idiomalarning bir-biridan farqli

jihatlari hamda ularning tarjimasini yo'llarini ko'rsatishga harakat qildi. Bu davrda professor G'aybulla Salomov safdoshlari J.Sharipov, A.Muxtor, N.Vladimirova, M.Rasuliy bilan yonma-yon turib, o'zbek tarjimashunoslik fanining shakllanishiga o'zining munosib hissasini qo'shdi.[2]

O'sha paytda mutaxassislar o'rtasida tarjima nazariyasini ikki tomonlama: tilshunoslik va adabiyotshunoslik ilmi nuqtai nazaridan yondashib talqin qilish muammosi yuzaga kelgandi. Chunonchi, P.Toper, I.Kashkin, L.Sobolev, G.Gachechiladze, Ye.Etkind kabi olimlar tarjima – bu adabiy jarayon va badiiy ijod, tarjima nazariyasi esa adabiyotshunoslikka asoslangan fandır, deyishgan bo'lsa, A.Kunin, L.Barxudarov, V.Komissarov, Ya.Retsker, A.Shveytser singari tilshunoslar tarjima – bu matn bilan bog'liq lingvistik jarayon, tarjima nazariyasi ham lisoniy tahlilga asoslangan fandır, degan fikrni ilgari surishgan. G'aybulla Salomov bu xil qarashlarga o'z munosabatini aniq bildirib: “Ayrim olimlarimiz tarjima nazariyasi bilan shug'ullanishning hojati yo'q, negaki tarjima — sof amaliy ish deb hisoblaydilar. Holbuki, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish ko'pgina nazariy masalalarni chuqur o'rganishni talab qiladigan g'oyat murakkab bir ishdir,” deb yozgandi.

Mustaqillik badiiy ijodning barcha jabhalari kabi tarjimaga ham keng yo'l ochdi, tarjimonlarimiz uchun jahonga chiqish imkoniyati yaratildi. O'tgan o'n olti yil ichida ijodning tasviriy san'at, musiqa va qo'shiq turlari bo'yicha jahon maydoniga chiqdigu, badiiy va tarjima asarlari yaratish borasida jahon adabiy jarayonida hali o'rnimizni topolganimiz yo'q. Tarjima amaliyotidagi ayrim yutuqlar(“Jahon adabiyoti” jurnali faoliyati)ni hisobga olmaganimizda, kitobxonni quvontiradigan yirik asarlar tilimizga tarjima qilinmadi.

Ayniqsa, so'nggi yillari taniqli frantsuz tilshunosi Rumi Dor rahbarligida yaratilgan “O'zbekcha-frantsuzcha lug'at” va “Frantsuzcha-o'zbekcha lug'at” muhim voqea bo'ldi. Demoqchimanki, O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi elchixonalari ham atoqli adiblarimizning asarlarini chet tillariga tarjima qilinib nashr etilishiga qiziqsalar, ishga xorijdagi adabiyotimiz ixlosmandlarini jalb etsalar, ko'ngildagidek bo'lardi. Elchixonalarimizning bu yo'ldagi sa'y-harakati esa, munaqqid Suvon Meli ta'kidlaganidek, adabiyotimizning xorijda ham o'z bo'y bastini ko'rsata olishiga imkon yaratgan bo'lardi. Lekin buni tarjimon ona tilida asl nusxa matniga hamohang she'r yozsa bo'ldi, qabilida tushunmaslik kerak.[3]

Xulosa. Bir so'z bilan aytganda, biz o'tgan asrning tarjima fanidagi yutuqlarini boyitishimiz, tarjima amaliyoti va nazariyasi sohasida yangi ijodiy va ilmiy maktablar yaratishimiz kerak. Shu bilan birga, jurnalning har bir sonida bibliografik ma'lumotlar va respublika nashriyotlari tomonidan nashr etilgan tarjima qilingan asarlarning sharhlarini berish yaxshiroq bo'lar edi. Bir so'z bilan aytganda, agar "Jahon adabiyoti" jurnali jahon adabiyotini yaxshi biladigan xorijiy tarjimonlar tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, bu uning olimlar va jurnalistlar oldidagi obro'sini oshirar edi.

O'tgan asr tarjima asri sifatida belgilangan bo'lsa-da, bu sohadagi ilmiy va ijodiy izlanishlar yangi asrga qadar davom etishiga aminmiz. O'tgan asr tarjima asri sifatida belgilangan bo'lsa-da, bu sohadagi ilmiy va ijodiy izlanishlar yangi asrda ham davom etishiga ishonchimiz komil.

Adabiyotlar:

1. Muxamedov A.X. SamDChTI, xorijiy filologiyaning realistik tarjima nazariyasini yaratishga. Samarqand: 2019/4 (73).
2. Muxamedov A.X. Tarjima nazariyasiga lingvistik yondashuvlar haqida. Tarjima, axborot, aloqa-siyosiy va ijtimoiy ko'priq. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. SamDChTI, Iyun 7, 2019. - b. 71-72.
3. Muxamedov A.X. O'zbek tarjima tamoyillari nazariyasining rivojlanishi (professorlar G. Salomov va K. Musaevlar misolida). "O'zbekistonda turizm sharoitida madaniyatlararo muloqot: tajriba, dolzarblik "Muammolar va istiqbollar" xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi. SamDChTI. Iyun 29-30, 2020-B. 211-2144.